

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2023  
MAXSUS SON

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.A.Ganiyeva</b>	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi .....	6
<b>G.S.Mirzayeva</b>	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida .....	10
<b>S.N.Fazildinova</b>	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works .....	14
<b>Sh.T.Axmadjonova</b>	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini .....	17
<b>D.S.Usmonova</b>	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language .....	20
<b>D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova</b>	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges .....	24
<b>N.R.Maxmudova</b>	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida .....	28
<b>M.Saminjonov</b>	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar .....	31
<b>I.M.Jo'rayev</b>	
Qadimiy qadriyatlar .....	37
<b>D.R.Ubaydullayeva</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlari qiyosiy tadqiqi .....	41
<b>N.Q.Adamboeva</b>	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari .....	49
<b>Z.M.Dadahonova</b>	
Components of knowledge control .....	53
<b>L.Teshebayeva</b>	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar .....	56
<b>Ш.М.Артикова</b>	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма .....	60
<b>M.M.Nurmatova</b>	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida .....	66
<b>S.I.Quziyev</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari .....	70
<b>T.Z.Ismonova</b>	
Problems and solutions of grammar translation method .....	76
<b>N.A.Komilova</b>	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari .....	80
<b>D.X.Madazizova</b>	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence .....	83
<b>S.A.Yusupova</b>	
Morphemic units expressing honour in different system languages .....	86
<b>N.Sidikova</b>	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri .....	91
<b>Sh.X.Nuritdinova</b>	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi .....	94
<b>N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva</b>	
Semantic analysis of english phrasal verbs .....	98
<b>B.A.Mukhtorova</b>	
The "Concept" in linguistics .....	102
<b>R.A.Ortiqov</b>	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili .....	106
<b>Sh.O.Abdiloyev</b>	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi .....	110

## PARALINGVISTIKA JONLI MULOQOT TARJIMONI SIFATIDA

## ПАРАЛИНГВИСТИКА КАК ПЕРЕВОДЧИК ЖИВОГО ОБЩЕНИЯ

## PARALINGUISTICS AS A TRANSLATOR OF LIVE COMMUNICATION

Nurmatova Munisxon Mashrabovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili kafedrası katta o'qituvchisi**Annotatsiya**

*Bugungi globalashuv jarayonlarida tilni inson bilan o'zaro aloqadorlikda, chambarchas bog'liqlikda o'rganuvchi tilshunoslikning yangi yo'nalishlari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilayotgani hech kimga sir emas. Paralingvistika ham til, jamiyat va inson o'rtasidagi bog'liqlikni o'zida aks ettiruvchi soha sifatida ana shunday yo'nalishlar sirasiga kiradi. Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida kommunikatsiya, inson muloqotini yanada chuqurroq anglash, o'rganish imkoniyatini taqdim qiladi. Chunki muloqot faqatgina verbal vositalar yig'indisi emas, muloqotda nolisoniy vositalar ham kata ahamiyatga ega. Ushbu maqolada muloqot jarayonida ijtimoiy yuzni saqlash yoki unga putur yetkazish, o'z navbatida, paralingvistik vositalarning qo'llanilishi bilan bog'liqligi haqida so'z yuritiladi.*

**Abstract**

*In today's era of globalization, there is a growing body of research focused on new directions in linguistics that examine the language in close association with people. Paralinguistics, as a field that reflects the connection between language, society and humans. Paralinguistics offers a deeper understanding and insight into the study of human communication as an interpreter of live communication. Communication is not only limited to verbal tools, as non-verbal cues play a crucial role as well. This article explores the preservation and potential harm to one's social image during the communication process, which is closely linked to the use of paralinguistic cues.*

**Аннотация**

*В сегодняшних процессах глобализации проводится ряд исследований по новым направлениям лингвистики, изучающим язык во взаимодействии с человеком, в тесной взаимосвязи. К числу таких направлений относится и паралингвистика как отрасль, отражающая взаимосвязь языка, общества и человека. Паралингвистика как живой коммуникативный переводчик предлагает возможность более глубокого понимания, изучения коммуникации, человеческого общения. Потому что общение-это не просто совокупность вербальных средств, в общении большое значение имеют и невербальные средства. В данной статье речь пойдет о том, что сохранение или подрыв социального лица в процессе общения, в свою очередь, связано с применением паралингвистических средств.*

**Kalit so'zlar:** paralingvistika, muloqot, ijtimoiy yuz, ijtimoiy yuzni saqlash, ijtimoiy yuzga putur yetkazish, nolisoniy vositalar, verbal vositalar.

**Ключевые слова:** паралингвистика, общение, социальное лицо, социальное сохранение лица, социальное подрыв лица, невербальные средства, вербальные средства.

**Key words:** paralinguistics, communication, face (social image)face saving acts, face threatening acts, non-verbal cues, verbal tools.

**KIRISH**

Insoniyat taraqqiyotning ilk davrlaridanoq verbal vositalar bilan birga noverbal vositalardan ham foydalanib kelinadi. Noverbal vositalar tarixi million yillar qadimga borib taqaladi, chunki insonlar qo'l, tana harakatlari bilan qadimdan muloqot qilib kelganlar. Biroq noverbal vositalardan foydalanishni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi – paralingvistika XX asrning 50-yillaridan boshlabgina vujudga keldi va rivojlana boshladi.

Muloqot jarayonida paralingvistik vositalardan keng foydalaniladi. Bu jarayon badiiy asarlarda ham o'z aksini topadi, ya'ni paralingvistik vositalar ham ifoda etiladi. Chunki har qanday inson muloqot jarayonida lingvistik vositalar bilan fikr ifodalasa ham, nolisoniy vositalarni ham, albatta, qo'llaydi. Paralingvistik vositalar, eng avvalo, milliy ruh va urf-odatlar bilan bog'lanadi, unda nutq odobi va madaniyat belgilari ham o'z aksini topadi. [9:32].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Insonlarning o'zaro muloqotida lisoniy birliklar bilan bir qatorda, paralingvistik vositalar ham alohida ahamiyatga ega. Muloqotda paralingvistik vositalar lisoniy vositalarga qo'shimcha sanaladi, ular aloqa-aralashuvda ma'lum axborotni uzatish, mazmunan to'ldirish, aniqlik kiritish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Paralingvistika atamasi ilk bor 1940-yillar oxirlarida amerikalik tilshunos A.Hill tomonidan fanga olib kirilgan. Keyinchalik ingliz tilshunosligida noverbal vositalarning xususiyatlari to'g'risida

qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. G.Trager, D.Schiffirin, S.Poyatos kabi olimlarning ilmiy izlanishlari aynan shu yo'nalish tadqiqiga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatlidir: "Paralingvistikaning o'rganilishi o'ziga xos tarixiy bosqichlarga ega. Bu termin birinchi marta A.Hill tomonidan tavsiya etilgan. Keyinchalik Treyger bu sohaga oid asar yozib, uning mohiyati, substansiyasi (bu fanning predmeti, vazifasi, o'rganiladigan hodisalar mohiyati va boshqalar)ni belgilab berdi" [28:213]

Paralingvistika sohasida rus tilshunosligida ham salmoqli izlanishlar amalga oshirilgan. A.Reformatskiy, T.Nikolayeva, B.Uspenskiy, G.Kolshanskiy, R.Yakobson, G.Kreydlin, M.Butovskaya, T.Vlasova, A.Plaxotnikov, Y.Borisova kabilarning tadqiqotlarida tilshunoslik va paralingvistikaning o'zaro aloqadorligi, paralingvistikaning nazariy asoslari, noverbal semiotika masalalari va boshqa masalalar rus va ingliz tillari misolida tadqiq qilingan.

O'zbek tilshunosligida esa paralingvistikaning rivojlanishi va taraqqiy topishida A.Nurmonov, M.Saidxonov, N.Yuldashev, Q.Yunusovlarning xizmatlarini e'tirof etish zarur. Bu olimlarning ilmiy izlanishlari asosida o'zbek tilshunosligida paralingvistik vositalarning ifodalanishi, aloqalarlashuvda imo-ishoralarning o'rni, tana tili masalalari o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda yaratilgan B.Axmedov, M.Burxonova, G.Xasanovalarning tadqiqotlari esa paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi, olfaktor lingvistikasi, dialogik nutqda noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunga kelib paralingvistika atamasi ikki xil ma'noda qo'llaniladi:

1. Tilshunoslikning muloqotning noverbal vositalarini o'rganuvchi sohasi.
2. Muloqotning noverbal vositalari jamlanmasi: tana tili, mimika, nutqning akustik xususiyatlari. Ayrim tadqiqotchilar yozuv bilan bog'liq jihatlar – harfdan tashqari birliklar (tinish belgilari), matnning grafik xususiyatlari, shuningdek, kommunikativ xususiyatga ega bo'lgan boshqa belgilar (emotikonlar, rasmlar, belgilar va h.k.)larni ham paralingvistik vositalar sifatida keltirib o'tadilar.

Demak, paralingvistika nolisoniy vositalarning umumiy nomi va bu vositalarni o'rganuvchi soha sanaladi.

M.Saidxonov o'zbek tilshunosligida paralingvistik vositalarni muloqotda ishlatilish maqsadiga ko'ra uchta guruhga ajratib tahlil qilgan:

- verbal muloqotning mazmun-mohiyatiga qo'shimcha aniqlik kiritish;
- verbal muloqotning chala tomonlarini to'ldirib kelish;
- verbal muloqot bilan o'zaro uyg'unlashib, aynan uning ma'nosini takrorlab kelish. Muallif bu o'rinda noverbal vositalar verbal vositalarga qo'shimcha, uning mazmun-mohiyatini to'ldiruvchi ekanini e'tirof etadi. Boshqa tilshunoslar tomonidan esa muloqotda nolisoniy vositalar lisoniy vositalardan ham ahamiyatli ekani qayd etiladi: "Insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida verbal vositalar yordamida o'zaro axborot almashinish hajmi asosiy axborot miqdoriga nisbatan atigi 7%, noverbal signallar ulushi esa asosiy axborotga nisbatan 93% ni tashkil qiladi"[8:12]. Chindan ham, ayrim hollarda muloqot lisoniy vositalarsiz, faqat noverbal vositalarning o'zi bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Ko'z qarashi, tana harakatlari yoxud grafik tasvirlar orqali ham kommunikatsiya jarayoni amalga oshishi mumkin. Biroq lisoniy vositalarning o'zi bilangina muloqotni samaralari amalga oshirib bo'lmaydi. Og'zaki nutqda lisoniy birliklarga qo'shimcha ravishda fonatsion vositalar, kinetik vositalar ham ishtirok etishi muloqotning mazmunini teranroq anglashga yordam beradi. Yozma nutqda esa tinish belgilari, grafik tasvirlar yuborilayotgan xabarning oson tushunilishiga ko'maklashadi. Demak, muloqotni baholashda lisoniy vositalarning o'ziningina tadqiq qilish yetarli emas. Nolingvistik vositalarning ham verbal vositalar bilan birgalikda tadqiq etilishi muloqotning turli jihatlarini kengroq o'rganish, xususan, ijtimoiy yuz bilan bog'liq nazariyalarni shakllantirish uchun ahamiyatlidir.

Inson muloqoti shu qadar murakkabki, bir qarashda noverbal vositalar barcha tillar uchun universal – umumiydek ko'rinadi. Chunki barcha xalqlar ham prosodik vositalardan, qo'l, tana harakatlaridan yoxud grafik vositalardan foydalanadilar. Biroq dunyo bo'ylab turfa tillar mavjud bo'lganidek, paralingvistik vositalar ham har bir til, har bir xalqqa xos, o'zaro farqlanuvchi xususiyatlarga ega. Bu esa turli tizimli tillarda paralingvistik vositalarning ham farqlanishini anglatadi. Stella Ting-Tumyning ta'kidlashicha, "turli madaniyat vakillarining tillari farqlanganligi sababli, lisoniy vositalar bilan hamohang holda noverbal vositalar ham madaniy farqlanib keladi". Demak, tillar farqlanganidek, madaniyatlarga xos paralingvistik vositalar ham mos ravishda turlicha qo'llaniladi.

Inson muloqoti shu qadar murakkabki, bir qarashda noverbal vositalar barcha tillar uchun universal – umumiydek ko'rinadi. Chunki barcha xalqlar ham prosodik vositalardan, qo'l, tana harakatlaridan yoxud grafik vositalardan foydalanadilar. Biroq dunyo bo'ylab turfa tillar mavjud bo'lganidek, paralingvistik vositalar ham har bir til, har bir xalqqa xos, o'zaro farqlanuvchi xususiyatlarga ega. Bu esa turli tizimli tillarda paralingvistik vositalarning ham farqlanishini anglatadi. Stella Ting-Tumyning ta'kidlashicha, "turli madaniyat vakillarining tillari farqlanganligi sababli, lisoniy vositalar bilan hamohang holda noverbal vositalar ham madaniy farqlanib keladi". Demak, tillar farqlanganidek, madaniyatlarga xos paralingvistik vositalar ham mos ravishda turlicha qo'llaniladi.

M.Saidxonov [32:9] muloqotda noverbal vositalarning ahamiyatiga to'xtalib, quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Zamonaviy tilshunoslik yutuqlari noverbal vositalarni faqatgina verbal vositalarning zaruriy komponenti emas, balki axborotlarni kodlashtirib yetkazib berish, dekodlash va semiotik belgilar yordamida noverbal muloqotga kirishish vositasi sifatida talqin etilishini talab etmoqda. Ba'zi hollarda noverbal vositalarsiz fikrlar yalang'och, mantiqiy jihatidan tushunarsiz, psixologik jihatidan noto'g'ri bo'lib qoladi".

Noverbal muloqot insonning irqiy va ijtimoiy xususiyatlari, ularning ruhiy, jismoniy va hissiy holati, muayyan vaziyat yoki muayyan shaxs yoki obyektga munosabati, shuningdek, jamoadagi psixologik iqlim haqida ma'lumot uzatish uchun ishlatiladi. Bu esa bevosita nutqiy aktlar bilan bog'liq [34:22-23]. Bunda illokutiv akt va perlokutiv aktlar ahamiyatlidir. Illokutiv akt – maqsad, niyat akti muloqotning maqsadini belgilashda va perlokutiv akt – ta'sir etish aktida paralingvistik vositalarning o'rnini tadqiq qilish ijtimoiy yuz tushunchasi bilan ham bog'liqdir. Chunki muloqot maqsadidan kelib chiqqan holda atay ijtimoiy yuzga putur yetkazishni ko'zlash yoxud ijobiy va salbiy yuzni saqlashga intilish mumkin.

Muloqot jarayonida turli vositalar orqali o'zaro axborot almashiniladi. Bu vositalar kommunikatsiya jarayonining mukammal va to'liq bo'lishi uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham ilmiy adabiyotlarda lisoniy va nolisoniy vositalar, lingvistik va ekstralingvistik birliklar, axborot uzatishga xizmat qiluvchi badiiy detallar kabi terminlar qo'llanadi. Axborot ifodalashda har bir sistema elementi o'ziga xos ifoda yukini oladi. Ifoda yuki semiotik strukturadan iborat birlik sifatida uslubiy-funksional, pragma-kognitiv, poetik-stilistik xususiyatlarga ega bo'ladi.

Noverbal vositalarni verbal vositalarga mos holda qo'llashda kontekstual vaziyat muhim sanaladi. Jumla va u bilan birga qo'llanilayotgan imo-ishoralar orqali ifodalangan propozitsiyaning to'g'ri anglanishi uchun nutq ishtirokchilarining barchasi kontekstual vaziyatdan xabardor bo'lishlari lozim. Shuni ta'kidlash mumkinki, noverbal vositalar xabarni verbal vositalarsiz lisoniy vositalarning bevosita vizual-ishoraviy ko'rinishlari orqali yetkaza oladi, ammo yozma matnlarda noverbal harakatni bevosita ko'rishning imkoni yo'qligi uchun lisoniy birliklar yordamida noverballik haqida ma'lumotga ega bo'lamiz [34:12]. Bunda maxsus lingvistik birliklar noverbal harakatlarni bildirish uchun qo'llaniladi: *ovozini pasaytirib gapirdi, ko'zlarini olib qochdi, qo'li bilan siltab tashladi* kabi.

#### XULOSA

Paralingvistika tarkibiga kiruvchi vositalardan birinchi guruhi fonatsion, ya'ni prosodik vositalardir. "So'zdagi ma'no tovushlar vositasida zohir bo'ladi. Tinglovchi ham ma'noni tovushlar vositasida qabul qiladi. Shuning uchun ham so'z tarkibidagi biror tovushning talaffuzda o'zgarishi (cho'zilishi, almashtirilishi, tushirib qoldirilishi) ma'noga ta'sir qiladi. Bunday hollarda so'zning denotativ ma'nosi o'zgarmay, faqat konnotativ ma'nosi o'zgaradi". Demak, talaffuzga xos prosodik xususiyatlar muloqotda so'zlovchining ko'zlangan maqsadga erishishi, tinglovchining zaruriy ma'noni qabul qilib olishi uchun ahamiyatlidir. Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida kommunikatsiya, inson muloqotini yanada chuqurroq anglash, o'rganish imkoniyatini taqdim qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akbarova, Q., & Nurmatova, M. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA "OG'IZ" SO'ZI ORQALI IFODALANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING STRUKTURAL-GRAMMATIK XUSUSIYATI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(5 Part 2), 92-95.
2. Akbarova, Q., & Nurmatova, M. (2023). СОМАТИЗМ ТУШУНЧАСИ ВА «ОФИЗ» СЎЗИ ОРҚАЛИ ИФОДАЛАНГАН ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ТАДҚИҚИ. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(5 Part 2), 75-77.
3. A'zamjonovna, Y. S. Farg'ona davlat universiteti, Lingvistika (ingliz tili) 2-bosqich magistranti Nurmatova Munisxon Mashrabovna Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi. *MATERIALLARI TO'PLAMI*, 32.
4. Austin J. How to do things with words. Oxford: Oxford University Press, 1975 (1962). ISBN 0-19-281-205-X.
5. Azamovna, M. N., & Mashrabovna, N. M. (2023). THE VERBALIZER" GUEST" AS A REFLECTION OF THE PECULIARITIES OF THE WORLD PICTURE OF THE ENGLISH PEOPLE. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 12, 104-106.
6. Brown, P., & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Burkhardt A. *Speech acts, meaning and intentions: Critical approaches to the philosophy of John R.Searle*. –Berlin/New York. 1990. ISBN 0-89925-357-1.
8. Бутовская М.Л. Язык тела: природа и культура (эволюционные и кросс-культурные основы невербальной коммуникация человека). – Москва: Научный мир, 2004. – С.12.
9. Колшанский Г. Паралингвистика. – М.: Наука, 1974.
10. Крейдлин Г. Невербальная семиотика. – М.: Новое литературное обозрение, 2002.

11. Mashrabovna, N. M., & A'zamjonovna, Y. S. (2022). THEORETICAL CONCEPT OF POLITENESS BASICS IN DIFFERENT-REGIONAL VARIATIONS. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(25), 25-27.
12. Mashrabovna, N. M. (2022). MAIN TYPES OF LANGUAGE POLITENESS. *PEDAGOGS jurnali*, 20(2), 50-53.
13. Mashrabovna, N. M., & Xolmatjon o'g'li, T. R. (2023). OAV TILI OMMA ONGIGA TA'SIR ETUVCHI VOSITA SIFATIDA. *PEDAGOG*, 6(5), 392-395.
14. Mashrabovna, N. M. (2023). MEDIAMATN TARJIMASI MUAMMOLARI. *Научный Фокус*, 1(1), 587-589.
15. Mashrabovna, N. M. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE LINGUISTIC PHENOMENON OF LACUNARITY. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 310-315.
16. MASHRABOVNA, N. M., & Maskhariddinovna, U. G. (2022). THE INDIVIDUALITY OF THE AUTHOR IN THE LINGUISTIC REPRESENTATION OF THE WORLD. *Journal of new century innovations*, 19(7), 120-122.
17. Mashrabovna, N. M. (2022). NOVERBAL MULOQOTNI IFODALOVCHI VOSITALAR. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 5-7.
18. Mashrabovna, N. M. (2023). Principles of Expressing Politeness in Formal Letters. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(6), 217-221.
19. Mashrabovna, N. M. (2023). Significance of Politeness in Communication. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(7), 29-33.
20. Mashrabovna, N. M. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK TERMINOLOGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 765-772.
21. Mashrabovna, N. M. (2023). ACTUAL STRUCTURE IN THEORETICAL GRAMMAR. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
22. Муротовна, Қ. М., & Нурматова, М. М. (2022). Бадий Нутқ Ва Бадий Тасвир. *Miasto Przyszłości*, 28, 445-447.
23. Murotovna, Q. M., & Mashrabovna, N. M. (2023). ASAR KOMPOZITSIYASIDA BADIY NUTQ FUNKSIYASI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(4), 123-126.
24. Nurmatova, M., Ergashov, U. B., & Ergasheva, S. (2023). PRAGMALINGVISTIKANING SHAKLLANISHI VA O'RGANILISHI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(5 Part 2), 23-24.
25. Nurmatova, M. M., & Ismoilova, D. R. (2021). BUILDING THE STRATEGIC COMPETENCE IN THE HETEROGENEOUS COMMUNICATION. *ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ*, 65.
26. Nurmatova, M. M., & Yusupova, S. A. Z. (2022). FLORISTIC WORLD RELATED PHRASEOLOGICAL UNITS: BASIC CONCEPTS. In *INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 21, pp. 158-161)*.
27. Нурматова, М., & Усманова, Г. (2023). ОСНОВНЫЕ ВИДЫ ЯЗЫКОВОЙ ВЕЖЛИВОСТИ. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(5 Part 2), 64-66.
28. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент.: Академ наshr, 2012. – Б.213.
29. Омонова, М. К., & Нурматова, М. М. (2017). ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРАВИЛЬНОСТЬ В ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАЖНЕНИЙ В ПИСЬМЕ. *Ученый XXI века*, 93.
30. Orziboyeva, X. T. Q., & Nurmatova, M. M. (2022). INGLIZ VA O 'ZBEK BOLALAR QO 'SHIG 'I "ALLA" NING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 333-337.
31. Qizi, A. K. Q., Mashrabovna, N. M., & Qizi, X. M. A. (2022). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDA AKTUALLASHTIRUVCHI VOSITALAR. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(12), 130-133.
32. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.9.
33. Usmanova, G., Nurmatova, M., & Mirzayeva, D. (2023). XUSHMUOMALALIKDA GENDER XUSUSIYATLARINING O'RNI. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(5 Part 2), 94-95.
34. Хасанова Г. Диалогик нутқда новербал воситаларнинг ўрни ва уларнинг прагматик хусусиятлари. *Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. –Фарғона, 2022. –Б.22-23.*